

## AJRIM YOQASIDAGI OILALAR VA ULARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

**Raxmonova Dilafruz**

*O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari, ularning kelib chiqish sabablari va bu jarayonga ta'sir qiluvchi omillar keng tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy nizolar, moddiy qiyinchiliklar, o'zaro tushunmovchiliklar, qarindosh-urug'larning aralashuvi, farzandsizlik, migratsiya, zararli odatlar va boshqa omillarning oila barqarorligiga ta'siri yoritilgan. Maqolada statistik ma'lumotlar asosida O'zbekistonda ajrimlar sonining o'sish tendensiyasi ham tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ajrimlarning oldini olish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, yoshlarni nikohga tayyorlash, ma'naviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari oilani jamiyatning muhim ijtimoiy instituti sifatida saqlab qolish zarurligini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *oilaviy ajrim, insonparvarlik, milliy g'urur, farzandsizlik, uzoq muddat bir oila bo'lib yashamaslik, xiyonat, ichkilik va giyohvandlikka ruju qo'yish, oilaparvarlik, milliy g'urur, sabr*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются социально-психологические проблемы семей, находящихся на грани развода, а также факторы, влияющие на возникновение семейных конфликтов. Особое внимание уделяется таким причинам, как материальные трудности, отсутствие взаимопонимания между супругами, вмешательство родственников, бездетность, миграция, вредные привычки и другие социальные обстоятельства. В работе также анализируются статистические данные, отражающие рост количества разводов в Узбекистане в последние годы. Кроме того, представлены предложения и рекомендации по предотвращению разводов, укреплению семейных отношений, подготовке молодежи к браку и развитию механизмов социальной и моральной поддержки семьи. Результаты исследования подчеркивают важность сохранения семьи как одного из ключевых социальных институтов общества.*

**Ключевые слова:** *разлука семьи, гуманизм, национальная гордость, бездетность, длительная несемья, измена, пристрастие к алкоголю и наркотикам, забота о семье, национальная гордость, терпение.*

**Annotation:** *This article examines the socio-psychological problems of families that are on the verge of divorce and analyzes the factors influencing family conflicts and marital breakdown. Particular attention is given to issues such as financial difficulties, lack of mutual understanding between spouses, interference of relatives, infertility, migration, harmful habits, and other social factors affecting family stability. The study also analyzes statistical data showing the increasing trend of divorce rates in Uzbekistan in recent years. In addition, the paper provides recommendations aimed at preventing divorces, strengthening family relationships, preparing young people for marriage, and*

*improving social and moral support mechanisms for families. The results highlight the importance of preserving the family as a key social institution in society.*

**Key words:** *family separation, humanitarianism, national pride, childlessness, not living as a family for a long time, treason, addiction to alcohol and drugs, family care, national pride, patience*

2025 yilda nikohdan ajratishga oid ko'rilgan ishlarning 37 544 tasi bo'yicha da'vo talablari qanoatlantirilgan. Ya'ni shuncha oila ajrashgan. 24 244 tasi bo'yicha da'vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan, 6 239 tasi ko'rmasdan qoldirilgan va 2 508 ta da'vo bo'yicha ishni yuritish tugatilgan. Ushbu raqamlar 2024 yilga nisbatan oshgan: 2024 yilda nikohdan ajratishga oid 63 843 ta ish ko'rib, shundan 32 217 tasida da'vo talablari qanoatlantirilgandi. Birgina 2020 yilning o'tgan 5 oyi davomida esa respublika bo'yicha 9465ta oilaviy ajrim qayd etilgan. Bu borada eng salbiy ko'rsatkichlar Toshkent shahri (29,6 foiz), Sirdaryo (25,5 foiz), Navoiy (22,9 foiz), Andijon (21,2 foiz), Toshkent (20,2 foiz) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Kun.uz ma'lumot berishicha, ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar soni 13 ming 188tani, noqonuniy nikoh asosida yashayotganlar 8996tani, erta nikoh holati 6tani tashkil qilgan. Ajrimlar natijasida 2020 yilning o'zida respublika bo'yicha 11 ming nafardan ortiq voyaga yetmagan bola ota yoki ona mehridan mahrum bo'lgan. Oilaviy ajrimlarning 50-60 foizi oilaviy kelishmovchilik, qolgani farzandsizlik, uzoq muddat bir oila bo'lib yashamaslik, xiyonat, ichkilik va giyohvandlikka ruju qo'yish sababli kelib chiqmoqda(1). Respublika bo'yicha qayd etilgan nizoli oilalar soni 12 ming 931tani tashkil etib, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Xorazm (4035ta), Farg'ona (1571ta), Samarqand (1454ta) viloyatlariga to'g'ri kelgan(2). Oila|| ilmiy-amaliy tadqiqot markazi Kun.uz'ga taqdim etgan ma'lumotiga ko'ra, 2018 yil aprel-sentabr oylarida 18.521 nafar ajrashish arafasida turgan oilalarda turmushning buzilishiga sabab sifatida quyidagi omillar ko'rsatilgan:

48,4 foiz — er-xotin o'rtasidagi maishiy kelishmovchiliklar;

17,4 foiz — qaynona, qaynота yoki uchinchi shaxs, umuman boshqalarning oila ishiga aralashuvi;

5,3 foiz — bepushtlik;

6,3 foiz — moddiy yetishmovchiliklar, turmush o'rtog'ining ishsizligi va iqtisodiy muammolar;

5,5 foiz — ichkilikbozlik va boshqa zararli odatlar oqibati;

3,5 foiz — ichki va tashqi migratsiya;

11,3 foiz — boshqa turli sabablar.

Ijtimoiy tarmoqda "Oilaviy ajrimlarga asosiy sabab nima deb o'ylaysiz?" savoli bilan o'tkazilgan kichik so'rovnoma ham tarmoqning aksariyat foydalanuvchilari urf-odatlar, qaynonaning kelimga soliq solishi, kuyovning esa kelin tomondan mulk ta'ma qilishi, kelinlarning ota uyiga —gap tashishi, telefon va ijtimoiy tarmoqlar, yoshlarning na fikrlash, na pul topish borasida mustaqil emasligi, yigitlarning o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishi, qizlarning esa —xo'pdan yiroqligi, diniy bilimdan bexabarlik, o'zaro

hurmat tushunchasining yo'qolishi, besabrlilik, aybini tan olmaslik kabilarni sanab o'tishdi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ajrashish arafasida turgan, ajrim qayd etilgan oilalarning muammolari bir-biriga o'xshamaydi. Ammo har biri o'z yechimiga ega, ajrimga qadar oilani saqlab qolishning imkoniyati ancha yuqori bo'lgan.

Oilaviy ajrimlarni oldini olish uchun quydagi taklif va tavsiyalarni beramiz(3):

Birinchi, kelimga uy xizmatchisi sifatida qarash adolatdan emasligini keng targ'ib qilish zarur.

Ikkinchi, BMT aholishunoslik fondining O'zbekistondagi vakolatxonasi (UNFPA) ning ma'lumotlariga ko'ra, yoshlarning 64 foizi reproduktiv (jinsiy) salomatlik bo'yicha to'liq ma'lumotga ega emas. Ular ota-onasidan yoki mutaxassisdan emas, balki o'z tengdoshlaridan, internetdan tartibsiz tarqatilayotgan ma'lumotlarga ishonadi. Buning oqibatida nikohdan keyingi hayot haqida noto'g'ri tasavvur paydo bo'ladi yoxud ayrim masalalarga to'g'ri yondashuv qanday bo'lishi haqida aniq ma'lumoti bo'lmaydi.

Tadqiqotga ko'ra, o'g'il bolalarning 86 foizi, qizlarning esa 93 foizi sog'lom jinsiy hayot haqida ko'proq bilim olishga istak bildirgan. Demak, kollej-litsey o'quvchilariga reproduktiv hayot haqida mutaxassislar tomonidan ma'lumot berilsa (stixiyali tarzda yig'ilish o'tkazib, hisobotga yopishtirish uchun suratga tushirish maqsadida emas, albatta), ular tinglashga tayyor.

Sog'lom jinsiy hayot qanday bo'lishi, jinsiy balog'at, bepushtlikka olib keluvchi sabablar va ularning zamonaviy yechimlari borasida tibbiyot nima taklif etishi kabi ma'lumotga ega bo'lish oilaga tayyorgarlikning muhim bosqichidir. Jinsiy munosabatlar haqida gapirish, muhokama etish uyat sanalgan jamiyatda, albatta, bu yo'nalishda bo'shliqning paydo bo'lishi yaxshi natijaga olib kelmaydi.

Uchunchidan, hozirda oila qurishning eng kichik yoshi yigitlar uchun 18, qizlar uchun 17 yosh etib belgilangan. O'tkazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra, 85,7 foiz yigitlar va 22,3 foiz qizlar amalda 22 yoshdan keyingi nikohni afzal ko'rishlarini ta'kidlashadi. Demak, nikoh yoshini o'zgartirish uchun asos bor va bu muhim. Oilaga qadar, ota-onaning o'z farzandlarini fikran va moddiy mustaqil qilishlari ham ahamiyatga ega. Ona bo'layotgan kelinlarning 30 foizi 15-19 yosh oralig'ida ekanligi ham masalaning eng og'riqli nuqtalaridan biri. Yosh, juda yosh onaning uquvsizligi natijasida ham oila buzilishi ehtimoli ortadi, ham farzand tarbiyasi katta so'roq ostida qoladi.

To'rtinchidan, moddiy yetishmovchilikni oldini olish. Kuyovlikka da'vogarlar otasining puliga, oilasining qudratiga ishonib emas, peshona teri, bilimi va kuchi bilan mustaqil, asosiysi, halol pul topib, topganining qadriga yetadigan bo'lganda — oila boshlig'i|| degan nomga sazovor bo'lish maqsadga muvofiq. Oilaviy mojarolarning oldini olish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, davlat tashkilotlarining ham bu boradagi mas'ulligi oshirilgan.

Misol uchun, oilalarni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Oliy sud o'rtasida memorandum imzolangan. Unga ko'ra, respublikamiz

barcha hududlarida ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalar bilan yakka tartibda ishlash yo'lga qo'yildi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — jiddiy o'ylamasdan ajrashishga qaror qabul qilgan oilalar bilan profilaktika o'tkazish va ularning farzandlari manfaatlarini himoya qilishdir. Buning samarasi o'laroq, joriy yil davomida ajrashish uchun ariza topshirgan 24.053 nafar oilaning 18.097 tasi (75,2 foizi) jamoatchilik vakillari tomonidan yarashtirildi.

Ammo, ajrashish rasmiylashtirilmagan holatlarda, ya'ni sun'iy to'siqlar qo'yilishi, oilaning norasmiy ajrashuvga rozi bo'lib, sha'riy taloq bilan kifoyalani, alohida yashashga xalaqit qilmayapti. Vaholanki, norasmiy ajrashuvlar oqibatida ayol va farzandning huquqlari qadrsizlanadi, — “onasi o'pmagan qiz”ga uylangan kuyovning bo'ynidan aliment majburiyati ham soqit bo'ladi.

Yoki voqealar rivoji yigitning ziyoniga ishlab, uning keyingi turmushiga ham salbiy ta'sir qiladi. Ayni paytda joylardagi FHDYo organlari qoshida Oila dorilfununlari tashkil qilinib, ularda nikohlanuvchi yoshlar uchun 1 oylik o'quv kurslari tashkil qilinmoqda. Faqat shu o'rinda bir savol ko'ndalang bo'ladi: 18–20 yil davomida oilada singdirilmagan ko'nikmani 1 oy ichida tushuntirishning imkoni bormikan? Har bir oilada muhit, iqtisodiy va ma'naviy ahvol turlicha ekanligini nazardan qochirish kerak emas[4].

Demak, hamma gap baribir yoshlarning oila haqida tasavvuri va uning atrofidagi masalalarga borib taqaladi. Kalavaning uchini davlat tashkilotlarining yoinki ota-onaning qo'liga tutqazib qo'yish emas, chigallikni hamjihatlikda yechishga urinish kerak. Turmush qurgan er-xotin ham o'zlarini har tomonlama ta'minlash masalasida, ham mulohaza yurita olishda mustaqillikka ega bo'lishi, nafaqat o'zining shaxsiy qiziqishlari, balki farzandining taqdiri borasida ham mas'uliyatni his etishi lozim.

Beshinchidan, Ajrimlarda taraflar, ayniqsa, farzandlar og'ir moddiy ahvolga tushishining oldini olish uchun nikoh shartnomasi tuzishning afzalliklarini targ'ib qilish lozim. Nikoh shartnomasi bu nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvdir.

Nikohni tugatish mobaynida tartibga solinishi eng qiyin bo'lgan masalalardan biri bu mulkning bo'linishidir. Nikoh shartnomasi, asosan, mulk bo'linishi va majburiyatlar taqsimlanishi qay tartibda amalga oshirilishini oldindan belgilab beradi.

Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar ham, shuningdek, nikoh davrida ham tuzilish mumkin. Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. To'ychiyeva B. “Yoshlar va konfliktlar: konfliktlar yechimiga o'rganish” Toshkent. 2008-yil.

2. <https://kun.uz/70965524?q=%2Fuz%2F70965524>.
3. Ergashev, B.D. “Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar” jurnali, jild:02, nashr:02, 2023 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning — O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida||gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2017-yil. 8-b